

BUXORODA MANG'ITLAR SULOLASINING HOKIMIYATGA KELISHI

Dusaliyev Muysin Tura o'g'li

Shahrisabz davlat pedagogika instituti "Tarix" kafedrası o'qituvchisi

muysin454@gmail.com

Orcid: 0009-0007-5427-4161

UDK: 94(575.151)

Annotatsiya: Mazkur maqolada XVIII asrda Buxoro xonligida mang'itlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi jarayoni tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda Ashtarxoniylar davlatining siyosiy va iqtisodiy tanazzuli, markaziy hokimiyatning zaiflashuvi hamda qabilalararo kurashlarning kuchayishi mang'itlar sulolasining hokimiyatga kelishidagi asosiy omillar sifatida yoritilgan. Shuningdek, Muhammad Hakimbiy otaliq, Muhammad Rahimbiy va Doniyolbiy faoliyati, ularning davlat boshqaruvidagi o'rnini ham batafsil ko'rib chiqilgan. Ayniqsa, Amir Shohmurod davrida markaziy hokimiyatning mustahkamlanishi, davlat boshqaruvida amalga oshirilgan islohotlar va Buxoro amirligining shakllanish jarayoni ilmiy jihatdan tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Mang'itlar sulolasi, Buxoro xonligi, Buxoro amirligi, Ashtarxoniylar sulolasi, Muhammad Rahimbiy, Doniyolbiy otaliq, Amir Shohmurod, Markaziy Osiyo tarixi.

Аннотация. В данной статье на основе исторических источников и научной литературы анализируется процесс прихода к власти мангытской династии в Бухарском ханстве в XVIII веке. В исследовании политический и экономический кризис государства Аштарханидов, ослабление центральной власти, а также усиление межплеменной борьбы рассматриваются как основные факторы прихода мангытской династии к власти. Кроме того, подробно освещена деятельность Мухаммад Хакимбия аталыка, Мухаммад Рахимбия и Даниялбия, а также их роль в системе государственного управления. Особое внимание уделено периоду правления эмира Шахмурада, укреплению центральной власти, реформам, проведенным в сфере

государственного управления, и процессу формирования Бухарского эмирата, которые проанализированы с научной точки зрения.

Ключевые слова. Мангытская династия, Бухарское ханство, Бухарский эмират, династия Аштарханидов, Мухаммад Рахимбий, Даниялбий аталык, эмир Шахмурад, история Центральной Азии.

Annotation. This article analyzes the process of the rise of the Manghit dynasty to power in the Bukhara Khanate during the eighteenth century on the basis of historical sources and scholarly literature. The study examines the political and economic decline of the Ashtarkhanid state, the weakening of central authority, and the intensification of intertribal conflicts as the main factors that led to the rise of the Manghit dynasty. In addition, the activities of Muhammad Hakimbiy Ataliq, Muhammad Rahimbiy, and Daniyalbiy, as well as their role in state administration, are discussed in detail. Particular attention is paid to the reign of Amir Shahmurad, the strengthening of central authority, the reforms implemented in public administration, and the formation process of the Bukhara Emirate, all of which are analyzed from a scholarly perspective.

Keywords: Manghit dynasty, Bukhara Khanate, Bukhara Emirate, Ashtarkhanid dynasty, Muhammad Rahimbiy, Daniyalbiy Ataliq, Amir Shahmurad, history of Central Asia.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). XVIII asrning birinchi yarmida Buxoro xonligi siyosiy, iqtisodiy va harbiy jihatdan chuqur inqiroz holatiga tushib qoldi[1]. Ashtarxoniylar sulolasining zaiflashuvi natijasida markaziy hokimiyat o'z mavqeini yo'qota boshladi. Viloyat hokimlari va qabila boshliqlari mustaqil siyosat yuritishga

intildilar[2]. Natijada mamlakat hududlarida siyosiy tarqoqlik kuchaydi. Ana shunday murakkab tarixiy vaziyatda mang'it urug'i vakillari siyosiy maydonga chiqib, asta-sekin davlat boshqaruvida yetakchi kuchga aylandilar.

Mang'itlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi uzoq davom etgan siyosiy kurashlar, qabilararo raqobat va markaziy hokimiyatning zaiflashuvi bilan chambarchas bog'liq edi. Ayniqsa, Muhammad Hakimbiy, Muhammad Rahimbey va Doniyolbiy kabi siyosiy arboblarning faoliyati bu jarayonda muhim rol o'ynadi. Keyinchalik Amir Shohmurod davrida mang'itlar hokimiyati to'liq mustahkamlanib, Buxoro amirligi shakllandi.

Tarixchi Azamat Ziyov "XVIII asr Buxoro tarixida markaziy hokimiyatning zaiflashuvi qabila boshliqlarining siyosiy kuchga aylanishiga olib keldi", deb ta'kidlaydi. Bu holat mang'itlarning hokimiyatga kelishida asosiy omillardan biri bo'ldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ИИТЕРАТУРА И МЕТОДЫ / MATERIALS AND METHODS). Mang'itlar sulolasining hokimiyatga kelishi masalasi tarixshunoslikda keng o'rganilgan mavzulardan biri hisoblanadi. Ushbu mavzuni tadqiq etishda mahalliy tarixchilar, rus sharqshunoslari va zamonaviy o'zbek olimlarining asarlari muhim ilmiy manba vazifasini bajaradi. Ahmad Donishning "Mang'itlar sulolasi tarixi" asari mang'itlar davridagi siyosiy boshqaruv, davlat tizimi va amaldorlar faoliyatini yoritishda muhim manbalardan biridir. Muallif voqealarni tanqidiy ruhda bayon qilib, davlat boshqaruvidagi kamchiliklarni ochib beradi. V. V. Bartoldning ilmiy tadqiqotlari esa Buxoro amirligining siyosiy tizimi va Markaziy Osiyodagi tarixiy jarayonlarni chuqur tahlil qilgani bilan ahamiyatlidir. Arminiy Vamberining sayohat xotiralari XIX asr Buxoro amirligining siyosiy va ijtimoiy hayotini tasvirlashda muhim o'rin tutadi. O. D. Chexovich tomonidan nashr etilgan Buxoro hujjatlariga oid to'plamlar esa mang'itlar davridagi davlat boshqaruvi va diplomatik munosabatlarni o'rganishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, Azamat Ziyov, H. Ziyoyev, B. Ahmedov va

Qahramon Rajabovning ilmiy ishlari mang'itlar sulolasining shakllanishi va Buxoro amirligi tarixini zamonaviy tarixshunoslik nuqtai nazaridan yoritib beradi.

Mazkur maqolani tayyorlash jarayonida tarixiylik, xolislik va tizimlilik tamoyillariga asoslangan ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini tarixiy-qiyosiy, tahliliy va manbashunoslik usullari tashkil etdi. Avvalo, mang'itlar sulolasining hokimiyatga kelishi bilan bog'liq tarixiy voqealar ketma-ketlik asosida o'rganildi hamda ularning siyosiy va ijtimoiy sabablariga alohida e'tibor qaratildi. Tadqiqot davomida Ahmad Donish, Muhammad Hakimxon To'ra, Mirzo Abdulazim Somiy kabi mahalliy mualliflarning asarlari bilan bir qatorda, V. V. Bartold, O. D. Chexovich, Arminiy Vamberi singari xorijiy sharqshunos va tarixchilarning ilmiy ishlari tahlil qilindi. Manbalarni o'rganishda qiyosiy-tahliliy usul qo'llanilib, turli tarixiy qarashlar o'zaro solishtirildi. Shuningdek, tadqiqotda tarixiy voqealarning sabab va oqibatlarini aniqlash uchun analiz va sintez usullaridan foydalanildi. Mang'itlar sulolasining hokimiyatga kelishida Ashtarxoniylar davlatining zaiflashuvi, qabilalararo kurashlar va tashqi siyosiy omillarning ta'siri kompleks ravishda yoritildi. Tadqiqotda ilmiy xolislikka rioya qilinib, mavjud tarixiy manbalar va zamonaviy ilmiy adabiyotlar asosida umumlashgan ilmiy xulosalar chiqarildi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). XVIII asr boshlariga kelib Ashtarxoniylar davlati chuqur tanazzulga yuz tutdi[3]. Markaziy hokimiyat viloyatlar ustidan nazoratni yo'qota boshladi. Xonlik hududlarida bekliklar mustaqil harakat qilar, davlat ichida siyosiy parokandalik kuchayardi.

Ichki nizolar va qabilalar o'rtasidagi kurashlar mamlakat iqtisodiyotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. Sug'orish tizimlari izdan chiqdi, hunarmandchilik va savdo pasaydi. Ayniqsa, qozoq qabilalarining tez-tez uyushtirgan hujumlari Buxoro xonligini yanada zaiflashtirdi. Savdo yo'llarining izdan chiqishi va sug'orish tizimining yomonlashuvi mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi[4].

Ahmad Donish bu davr haqida shunday yozadi: “Davlat ishlari tartibsiz bo‘lib, amaldorlar o‘z manfaatini xalq manfaatidan ustun qo‘ya boshladilar”[5]. Ushbu fikr Buxoro siyosiy tizimidagi inqirozni yaqqol ifodalaydi.

Tarixchi O. Chexovichning yozishicha, “Ashtarxoniylar davrining oxiriga kelib markaziy boshqaruv tizimi amalda qabila boshliqlari ta’siri ostida qolgan edi”. Bu holat mang‘it urug‘ining siyosiy kuch sifatida shakllanishiga imkon yaratdi.

Buxoro xonligidagi iqtisodiy inqiroz ham siyosiy beqarorlikni kuchaytirdi. Soliqlarning ortib borishi dehqonlar va hunarmandlarning ahvolini og‘irlashtirdi. Natijada ayrim hududlarda norozilik harakatlari yuzaga keldi.

Mang‘itlar o‘zbek urug‘lari orasida nufuzli qabilalardan biri hisoblangan. Shayboniylar davridan boshlab ular Movarounnahr siyosiy hayotida muhim o‘rin tutib kelganlar[6]. XVIII asrga kelib mang‘it urug‘i Buxoro saroyidagi eng ta’sirli siyosiy kuchlardan biriga aylandi.

Muhammad Hakimbiy otaliq mang‘itlarning kuchayishida katta rol o‘ynadi[7]. U Ashtarxoniylar hukmdorlar saroyida yuqori lavozimlarni egallab, davlat boshqaruvida faol ishtirok etdi. Uning siyosiy nufuzi tufayli mang‘itlar saroy amaldorlari orasida alohida mavqega ega bo‘ldilar.

Tarixchi H. Ziyoyev “Mang‘itlarning hokimiyat sari yo‘li avvalo otaliqlar institutidagi mavqeyi orqali shakllandi”, deb yozadi. Eron hukmdori Nodirshohning Movarounnahrda yurishlari ham mang‘itlar mavqeyining oshishiga sabab bo‘ldi[8]. Nodirshoh Buxoroni egallagach, mahalliy zodagonlar orasida mang‘itlarga tayandi. Bu esa Muhammad Rahimbiyning siyosiy mavqeini mustahkamladi. Tarixchi B. Ahmedovning ta’kidlashicha, “Nodirshoh istilosidan keyin Buxoroda amalda hokimiyat mang‘it amirlari qo‘liga o‘ta boshladi”. 1740-yillarda Muhammad Rahimbiy davlat boshqaruvida hal qiluvchi shaxsga aylandi. Ashtarxoniylar xonlar esa nomigagina hukmdor bo‘lib qolgan edilar.

1747-yilda Nodirshohning o‘ldirilishi Markaziy Osiyodagi siyosiy vaziyatni tubdan o‘zgartirdi[9]. Shu voqeadan so‘ng Muhammad Rahimbiy Buxoroda hokimiyatni to‘liq

egallash imkoniyatiga ega bo‘ldi. 1756-yilda Muhammad Rahimbiy rasman hokimiyatni qo‘lga olib, mang‘itlar sulolasi hukmronligiga asos soldi[10]. Ashtarxoniylar sulolasi hukmronligi tugatildi. Biroq u o‘zini “xon” emas, “amir” deb e’lon qildi. Chunki chingiziy bo‘lmagan shaxsning xon unvonini olishi siyosiy an’analarga zid edi[11].

Tarixchi A. Mukminova “Muhammad Rahimbiy siyosiy jihatdan nihoyatda ehtiyotkor hukmdor bo‘lgan”, deb yozadi. Muhammad Rahimbiy markaziy hokimiyatni tiklashga alohida e’tibor qaratdi. Samarqand, Qarshi, Miyonqol va Shahrisabzdagi mahalliy kuchlarni bo‘ysundirish uchun harbiy yurishlar olib bordi. Uning davrida davlat boshqaruvida harbiy-amaldorlar mavqeyi oshdi. Mang‘it amirlari davlat boshqaruvining barcha asosiy lavozimlarini egallay boshladilar. V. Bartold “Buxoroda mang‘itlar hokimiyatining o‘rnatilishi yangi siyosiy tizimning shakllanishiga olib keldi”, deb ta’kidlaydi.

Muhammad Rahimbiy davrida davlat nisbatan barqarorlashgan bo‘lsa-da, ichki nizolar to‘liq tugamadi. Ayrim viloyatlar markaziy hokimiyatga bo‘ysunishni istamas edilar. Muhammad Rahimbiy vafotidan keyin hokimiyat Doniyolbiy otaliq qo‘liga o‘tdi. U 1758–1785-yillarda davlatni boshqardi. Doniyolbiy hukmronligi davrida mang‘itlar sulolasi siyosiy jihatdan yanada mustahkamlandi. Biroq Doniyolbiy davlat boshqaruvida qator qiyinchiliklarga duch keldi. Viloyat hokimlarining mustaqillikka intilishi davom etdi. Shahrisabz va Hisor hududlarida tez-tez qo‘zg‘olonlar yuz berib turdi[12].

Tarixchi N. Xalikova “Doniyolbiy davrida markaziy hokimiyat diniy doiralar yordamida mustahkamlanishga harakat qilgan”, deb yozadi. Doniyolbiy davlat boshqaruvida ulamolar va qabila boshliqlariga tayangan. Bu esa ayrim hollarda siyosiy beqarorlikni kuchaytirgan. Shunga qaramay, aynan Doniyolbiy davrida mang‘itlar davlat boshqaruvida mutlaq ustunlikka erishdilar. Ashtarxoniylar siyosiy ta’siri deyarli tugatildi. Mang‘itlar hokimiyatining haqiqiy mustahkamlanishi Amir Shohmurod davrida amalga oshdi. U 1785-yilda hokimiyat tepasiga kelib, davlatni markazlashtirish siyosatini olib

bordi.

Amir Shohmurod zamondoshlari orasida “Amiri ma’sum” nomi bilan mashhur bo’lgan[13]. Qahramon Rajabov “Shohmurod adolatparvar va qat’iyatli hukmdor sifatida xalq orasida katta obro‘ qozongan”, deb yozadi. Shohmurod yoshligidan diniy ta’lim olgan va tasavvuf ilmini chuqur o’rgangan edi. U sodda hayot kechirishi bilan ham ajralib turgan. 1785-yilda Shohmurod Abulg’ozi xonni hokimiyatdan chetlashtirib, o’zini amir deb e’lon qildi. Shu tariqa Buxoro amirligi siyosiy jihatdan to’liq shakllandi. Shohmurod davlat boshqaruvida qator islohotlarni amalga oshirdi. U ayrim soliqlarni bekor qildi, sud tizimini tartibga soldi va davlat xazinasini mustahkamlashga harakat qildi.

Ahmad Donish Shohmurod haqida “U xalq manfaatini ko’zlagan hukmdor sifatida boshqa amirlardan ajralib turardi”, deb yozadi. Shohmurod Samarqandni tiklash va obodonlashtirish ishlariga ham katta e’tibor qaratdi[14]. Shahardagi ko’plab vayron bo’lgan me’moriy obidalar qayta ta’mirlandi. Mang’itlar sulolasining hokimiyatga kelishi Buxoro tarixida muhim siyosiy burilish yasadi. Bu sulola qariyb ikki asr davomida Buxoro amirligini boshqardi. Mang’itlar davrida davlat boshqaruvi qayta tashkil etildi, markaziy hokimiyatni tiklashga urinishlar amalga oshirildi. Biroq feodal munosabatlar va iqtisodiy qoloqlik saqlanib qoldi.

Arminiiniy Vamberi Buxoro amirligi haqida

shunday yozadi: “Buxoro Sharqdagi eng qadimiy va diniy markazlardan biri bo’lib, amir hokimiyati mutlaq kuchga ega edi” [15]. Tarixchi V. V. Bartold esa “Mang’itlar davrida Buxoro siyosiy jihatdan markazlashgan bo’lsa-da, iqtisodiy jihatdan zaifligicha qolgan”, deb ta’kidlaydi. XIX asrga kelib Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoga bosqini kuchaydi. Natijada Buxoro amirligi Rossiya ta’siriga tushib qoldi. Ahmad Donish mang’itlar davridagi siyosiy tizimni tanqid qilib, “Davlat taraqqiyoti uchun ilm va adolat asosiy omil bo’lishi kerak”, degan fikrni ilgari suradi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Buxoroda mang’itlar sulolasining hokimiyatga kelishi XVIII asrdagi siyosiy inqiroz va markaziy hokimiyat zaiflashuvi natijasida yuz berdi. Mang’itlar dastlab saroydagi siyosiy kuch sifatida shakllanib, keyinchalik davlat hokimiyatini to’liq egalladilar. Muhammad Rahimbiy mang’itlar sulolasiga asos soldi. Doniyolbiy bu hokimiyatni saqlab qolishga harakat qildi. Amir Shohmurod esa markaziy hokimiyatni mustahkamlab, Buxoro amirligini kuchaytirdi. Mang’itlar sulolasi Buxoro tarixida muhim o’rin egallaydi. Ular davrida davlat boshqaruvi va siyosiy hayotda sezilarli o’zgarishlar yuz berdi. Shu bilan birga, ichki ziddiyatlar va tashqi bosimlar keyinchalik amirlikning zaiflashuviga sabab bo’ldi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO’YXATI

(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Тошкент: Sharq, 2000. – Б. 214.
2. Ҳамид Зиёев. Ўзбекистон давлатчилиги тарихи. – Тошкент: Sharq, 2001. – Б. 188.
3. Александр Александрович Семёнов. Очерки по истории Бухарского ханства. – Москва: Издательство восточной литературы, 1954. – С. 121.
4. Баходир Аҳмедов. Ўзбекистон халқлари тарихи манбалари. – Тошкент: О’qituvchi, 1991. – Б. 167.
5. Ахмад Дониш. Манғитлар сулоласи тарихи. – Тошкент: Sharq, 2014. – Б. 45.
6. Муҳаммад Ҳакимхон Тўра. Мунтахаб ат-таворих. – Тошкент: Fan, 2011. – Б. 97.
7. Нодира Халикова. Бухоро амирлигининг сиёсий тарихи. – Тошкент: Universitet, 2005. – Б. 118.
8. Аида Муқминова. Бухоро тарихига оид тадқиқотлар. – Тошкент: Fan, 2002. – Б. 73.
9. Василий Владимирович Бартольд. Туркистон мўғуллар истилоси даврида. – Тошкент: Fan, 1990. – Б. 361.

10. Александр Александрович Семёнов. Очерки по истории Бухарского ханства. – Москва: Издательство восточной литературы, 1954. – С. 128.
11. Ольга Дмитриевна Чехович. Бухарские документы XIV–XIX веков. – Москва: Наука, 1965. – С. 92.
12. Ҳамид Зиёев. Ўзбекистон давлатчилиги тарихи. – Тошкент: Sharq, 2001. – Б. 193.
13. Қахрамон Ражабов. Амир Шоҳмурод ёхуд Амири маъсум. – Тошкент: Yangi asr avlodi, 2010. – Б. 56.
14. Қахрамон Ражабов. Амир Шоҳмурод ёхуд Амири маъсум. – Тошкент: Yangi asr avlodi, 2010. – Б. 74.
15. Arminiy Vamberi. Ўрта Осиё бўйлаб саёҳат. – Тошкент: Cho‘lpon, 1993. – Б. 84.